



**BARGXO`R QO`NG`IZLAR (CHRYSOMELIDAE)
BIOLOGIYASIGA OID MA`LUMOTLAR**

S.Sh.Axmadjonova., O.I.Ismoilova
Farg'ona davlat universiteti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 18.06.2024
Qayta qabul : 24.06.2024
Saytda mavjud : 27.06.2024

Muallif (lar)
S.Sh.Axmadjonova
O.I.Ismoilova

© S.Sh.Axmadjonovava boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annaatsiya: Maqolada bargxo`r qo`ng`izlarning ayrim biologik xususiyatlariga to`xtalgan. Bargxo`rlar oziqlanishiga ko`ra bir necha asosiy guruhlarga bo`linishi, ularni qo'ng'izlarning xayoti daraxt va buta o'simliklari yoki o'tlar bilan bog'liqligi. qo'ng'izlarining evolyutsiyasida trofik ixtisoslashuv, shuningdek o'simlik barglari bilan bog'liqlik muhim rol o'ynashi to`g`risida ma'lumotlar berilgan. Zararkunandalar deyarli manzarali daraxtlar vegetatsiyasi bilan bog'liqligiga to`xtalib o`tilgan. Turlarning uchinchi yirik oziqa kompleksi dukkaklilar bilan bog'liq.

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые биологические особенности жуков-листоедов. Листоеды делятся на несколько основных групп в зависимости от их питания, что делает их жизнедеятельностью Жуков, связанной с древесными и кустарниковыми растениями или травами. были получены данные о том, что трофическая специализация, а также родство с листьями растений играют важную роль в эволюции Жуков. Было отмечено, что вредители почти исключительно связаны с растительностью декоративных деревьев. Третий по величине пищевой комплекс вида связан с бобовыми.

Annotation: The article discusses some biological features of leaf beetles. Leaf beetles are divided into several main groups depending on their nutrition, which makes them a Beetle's vital activity associated with woody and shrubby plants or grasses. Evidence has been obtained that trophic specialization, as well as affinity with plant leaves, play an important role in the evolution of Beetles. It has been noted that pests are almost exclusively associated with the vegetation of ornamental trees. The third largest food complex of the species is associated with legumes.

O'zbekistonda bargxo'r qo'ng'izlarning o'rganilishi.

Bargxo'r qo'ng'izlar (Chrysomelidae) Coleopteraning eng katta oilalaridan biri bo'lib, dunyo faunasida 50000 ga yaqin turga ega. Ularning asosiy turlari va xilma-hilligi tropik hududlar bilan bog'liq bo'lsada, mo'tadil zonada ham ularni ko'plab turlarini uchratish mumkin.

Bu qo'ng'iz turlari tashqi muxit omillariga chidamli bo'lib, ular deyarli barcha mumkin bo'lgan yashash joylarini (suv havzalaridan baland tog'largacha, cho'llardan qutb orollarigacha) qamrab oladi. Barcha barg qo'ng'izlari u yoki bu darajada fitofaglardir, asosan yuqori darajada ozuqa o'simliklariga ixtisoslashganligi, yillar davomida oila uchun yaxlit bir butun xususiyatlarni shakllanishiga olib kelgan. Bargxo'r qo'ng'izlar nafaqat turlarning xilma-xilligi, balki qishloq xo'jaligi va mevali ekinlar, sabzavot-poliz ekinlarining zararkunandalari bo'lgan ko'plab turlarining katta amaliy ahamiyati tufayli ham tadqiqotchilarning e'tiborini doimiy ravishda jalb qilmoqda. Tabiiyki, bargxo'r qo'ng'izlarga qarshi samarali kurashish uchun ularning biologiyasi va ekologik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot kerak. Farg'ona vodiysi hududida bargxo'rlarning biologiyasi hali yetarlicha o'rganilmagan, garchi mintaqaviy faunistik ma'lumotlar, xususan, rus olimlariga tegishli bo'lib, bargxo'rlar bo'yicha Tuva viloyati (Cherepanov, 1965;), Sayanam (Guselnikov, Medvedev, 1984), Shimoliy Irkutsk viloyati va Yakutiya (Medvedev, 1973; Medvedev, Ammosov, 1978), Arktika (Medvedev, Korotyayev, 1980) xududlari bargxo'r qo'ng'izlarini o'rganilish taxlillari imiy asarlarida keltirilgan. Tadqiqotchilar o'z tekshiruvlarida imagoni o'rganish bilan bir

qatorda, ularning lichinka bosqichlarini o'zgarishi bo'yicha xam turli kuzatuv tajribalarini jadal olib borish natijasida ularni xayotiy fenologiyasini taxlil etdilar. Adabiyotlarda esa bu turni faqat MDH davlatlarining o'zida 280 dan ortiq turlari qayd etilganligi, xudud faunasida hali o'rganilmagan turlarning ko'pligini ko'rsatadi. Ozbekistonda so'nggi o'n yilliklarda bargxo'r qo'ng'izlarni o'rganilishi qisman boshlangan bo'lib, hududlarda bargxo'rlarning faoliyati hali yetarlicha o'rganilmagan, jumladan, X.Kimsanboyev(2017) bargxo'rlarning ayrim turlariga qisqacha to'xtalib o'tadi.

Abdullayev M.T (2022)va qator mualiflar tomonidan yaratilgan majmuada bargxo'rlardan,kolorado qo'ng'izini laboratoriya sharoitida o'rganish bo'yicha uslubiy ko'rsatma berilgan. Fayzullayev B va Malikov D(2022)lar o'z maqolalarida Zarafshon vohasi sharoitida terak bargxo'ri Chrysomela Populi l. ning biologik-ekologik xususiyatlari va zarari to'g'risida tadqiqot ma'lumotlari e'lon qilishadi. A.A. Ma'rupov, va uning shogirtlari tomonidan (2021)Bargxo'r qo'ng'iz (chrysomeloidae) larning biologiyasi va kenja oilalari morfologik tavsifi bayon etilgan. S.Sh.Axmadjonova, O.I.Ismoilovalar o'z maqolalarida(2023) Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera,Chrysomelidae)ning ayrim biologik hususiyatlari to'g'risida tadqiqot natijalarini e'lon qilishadi. Adabiyotlar taxlilidan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda bargxo'r qo'ng'izlar kam o'rganilgan bo'lib, mualliflar asosan ashshadiy zararkunanda tur kalarado

qo'ng'izi biologiyasi va ekologik xususiyatlariga to'xtalishgan.

Bargxo'rlar oziqlanishiga ko'ra bir necha asosiy guruhlarga bo'linadi, ular orasida monofaglar, oligofaglar, polifaglar va fitosaprofaglar guruhlari ajralib turadi, ular asosan o'simlik detritini qayta ishlashda faol ishtirok etadigan turlar xisoblanadi. Monofag bargxo'rlar kam sonda uchraydi. Bargxo'r qo'ng'izlarning xayoti daraxt va buta o'simliklari (dendrobionts) yoki o'tlar (hortobionts) bilan bog'liq. Tadqiqotlar olib borilgan xududlar faunasida asosan birinchi gurux taxminan 75 %, tashkil etdi, ikkinchi gurux esa - 25% gacha. Bargxo'r qo'ng'izlarining evolyutsiyasida trofik ixtisoslashuv, shuningdek o'simlik barglari bilan bog'liqlik muhim rol o'ynadi. Bargxo'r qo'ng'izlarining o'ziga xos xususiyati ularning yopiq urug'li o'simliklar bilan aloqasi. Agar biz dunyo faunasini ko'rib chiqsak, unda bargxo'r qo'ng'izlarning oziqlanishida bir urug' pallali va tuban tuzilishga ega o'simliklarni uchratish mumkin emas. Tadqiqotlar davomida zararkunandalar deyarli manzarali daraxtlar tanasida, asosan qarag'ay, tol, terak... 5 tur qayd etilgan. Bargxo'rlarning eng ko'p turlari ikki oila - Asteraceae va Salicaceae oilasi, o'simliklar vegetatsiyasi bilan bog'liq. Turlarning uchinchi yirik oziqa kompleksi dukkaklilar bilan bog'liq.

O't o'simliklardan, Asteraceae oilasidan tashqari, karamdoshlar, Rosaceae, sho'radoshlar, boshoqdoshlar vakillarida zararkunandalik qiladi. Bargxo'

qo'ng'izlarining katta qismi qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligining zararkunandalari hisoblanadi. Shu bilan birga, bargxo'r qo'ng'izlar tomonidan yetkazilgan zarar kamdan-kam hollarda o'simlikning to'liq nobut bo'lishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda vodiy xududi uchun bir necha o'nlab zararkunanda bargxo'rlar tadqiqotlar davomida kuzatilib, namunalar olindi (02-10.2023). Turning zararlilik darajasi, birinchi navbatda, uning soniga va ommaviy ko'payish o'choqlarini hosil qilish qobiliyatiga bog'liq. Bargxo'r qo'ng'izlar o'simlikning barcha qismlariga har xil darajada zarar etkazadi. Barglarning shikastlanishi va yosh kurtaklarning kemirilishi eng keng tarqalgan zarar ko'rsatkichi bo'lib, bu o'simliklarning assimilyatsiya yuzasining pasayishiga olib keladi.

Yosh nihollar, ko'chatlar va o'sish nuqtasidagi yosh kurtaklar shikastlanishga eng ta'sirchan bo'lib, zarar juda kuchli bo'lgan vaqtda aynan o'sish nuqtasidagi po'stloq ostida poya bo'ylab uzun yo'lakchalar hosil qiladi. Ko'pincha yosh o'simliklar va ko'chatlarda uchki bargning nobut bo'lishi qayd etiladi. Gul va gul qismlarining bargxo'rlar tomonidan zararlanishi deyarli juda kam uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Sh.Axmadjonova, O.I.Ismoilova. Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik hususiyatlari Eurasian journal of academic research. Volume 3 Issue 12, December 2023 ISSN 2181-2020 Page 182.

2. Abdullayev M.T, Yusupova M.N, Hayitov B.A O‘simliklar himoyasida biologik vositalarni ko‘paytirish va qo‘llash texnologiyasi. O‘quv-uslubiy majmua. Namangan 2022, 128b.

3. Гусельников С.А., Медведев Л.Н. Листоеды Западного Саяна и Минусинской котловины // Жесткокрылые Сибири. - Иркутск, 1984. - С.32-41

4. Долгин М.М. Распространение листоедов на Алтае // Зоологические проблемы Сибири. - Новосибирск, 1972. - С.81-82.

5. X.X. Kimsanboyev, B.A. Sulaymonov, A.R. Anorbayev, A.A. Rustamov Entomologiya va fitopotologiya. Toshkent «Niso poligraf» 2017.

6. Медведев Л.Н., Аммосов Ю.Н. Фауна листоедов (Coleoptera, Chrysomelidae) Якутии и ее главнейшие зоогеографические особенности // Эколого-фаунистические исследования насекомых Якутии. - Якутск, 1978. - С.112-129.

7. Медведев Л.Н., Коротяев Б.А. Очерки по фауне листоедов (Coleoptera, Chrysomelidae) Арктической Азии и Камчатки // Исследования по энтомофауне Северо-Востока СССР. - Владивосток, ДВНЦ АН СССР, 1980. - С.77-96.

8. Медведев Л.Н. Материалы к фауне листоедов севера Иркутской области и прилегающих районов // Фауна и экология насекомых Восточной Сибири и Дальнего Востока. - Иркутск, 1973. - С.142-152.

9. A.A. Ma'rupov, D.A. Bobojonova, O.S. Azamov Bargho'r qo'ng'iz (chrysomeloidae) larning biologiyasi va kenja oilalari morfologik tavsifi. «Иновацион ғоялар, ишланмалар амалиётга: муаммолар, тадқиқотлар ва ечимлар» Халқаро онлайн илмий-амалий анжуман 2021.21.04. Андижон.

10. Fayzullayev B va Malikov D(2022)lar o'z maqolalarida Zarafshon vohasi sharoitida terak bargho'ri Chrysomela Populi l.ning biologik-ekologik xususiyatlari va zarari. lalmikor dehkunchilikning ahamiyati, ilmий asoslari va univ. rivojlanishini innoatsiya agrotexnologiyalari. № 23 2023-08-02

11. Черепанов А.И. Насекомые Тувинской области // Тр. Биол. ин-т Зап.-Сиб. фил. АН СССР. Сер. Зоол., 1965. - Вып. 1.- С.35-77.